


**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-dekabr kuni yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarining qurilishini boshlashga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi.**



Yangi obyektlar — qariyb 11 milliard dollarlik 42 ta energiya ishlab chiqarish, saqlash quvvatlari va boshqa infratuzilma inshootlari



Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Qashqadaryo  
va Toshkent viloyatlarida umumiy qiymati  
3,3 milliard dollarga teng jami 3 ming 500

Natijada kelgusi yilda “yashil” energiya ishlab chiqarish hajmi 23 milliard kilovatt-

soatga yetadi. Ushbu quvvatlar O'zbekiston aholisining yillik elektr energiya iste'moli to'liq qoplanishiga xizmat qiladi.

► Davomi 2-betda

Hurmatli do'stlar!  
Xonimlar va janoblar!  
Bugun sizlar bilan yirik generatsiya  
avvatlarini ishga tushirish va yangilariga start  
ish marosimida uchrashib turganimdan  
dam mamnunman.  
Ishonamanki, "Barqaror energetika —  
ngi O'zbekistonning kelajak sari ishonchli  
dami" deb nomlangan anjumanimiz  
qadriyat energetika tarmog'ii rivoji, balki  
mlakatimizning barqaror taraqqiyoti  
ilidagi yana bir ulkan amaliy qadam  
iladi.  
Bugun jadal sur'atlarda o'sib  
rayotgan iqtisodiyotimiz va aholining  
bam hamda ehtiyojidan kelib chiqib,  
ergetika tizimida katta islohotlarni

amalg o'shirmaymiz. Biz bu yo'nalishda ikkita muhim maqsadga erishishni asosiy vazifa qilib belgilanganmiz.

Birinchisi, barcha tarmoq va hududlar uchun ishonchli va uzksiz energiya ta'minoti yo'lga qo'yish.

Ikkinchisi esa ana shu rejamizni zamonaviy, ekologik toza va qayta tiklanuvchi muqobil manbalari hisobidan amalga oshirishdir.

Ta'kidlash o'rinliki, so'nggi yillarda energetika tizimiga 35 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi va 9 ming megavatt elektr quvvatlar ishga tushirildi. Natijada yangi ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soatdan joriy yilda 85 milliard kilovatt-soatga yetdi. E'tibori jihat, salkam 5 ming megavattli quyosh va shamol,

400 megavattli gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi. Jami generatsiya quvvatlarida “yashil” energiyaning ulushi bu yil 30 foizgacha yetkazildi.

Bundan tashqari, xususiy sektor, aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida 2 ming megavattli kichik quyosh panellari o'rnatildi. Ularda shu yilning o'zida to'g'ri so'g'imcha ravishda 2 milliard kilovatt-soatga yaqin muqobil energiya ishlab chiqarildi. Shuningdek, hududlarda 69 ming kilometr elektr tarmoqlari, 14 ming transformator va yuqori kuchlanishli podstansiyalar yangilandi.

Sohadagi bunday o'zgarishlar mahalliy korxonalarni rivojiga ham katta turtki bo'lmoqda. Ushbu korxonalarni tomonidan

yangi qurilayotgan elektr stansiyalari va tarmoqlariga yil boshidan buyon 700 million dollarlik qurilish materiallari, metall konstruksiyalar, kabel o'tkazgichlar, elektr qurilmalari yetkazib berildi, loyihalash-injineriya va qurilish xizmatlari ko'rsatildi.

Birgina misol. Norin kaskad gidroelektr stansiyasining 38 megavattli ilk gidroelektr stansiyasi to'liq mahalliy mahsulotlardan foydalangan holda ishga tushirildi.

Soha rivojiga xizmat qiladigan qurilish, elektrotexnika va servis korxonalarimiz kelgusida xalqaro standartlarga javob beradigan yirik milliy kompaniyalarga aylanishga albatta ishonaman.

▶ *Davomi 2-betda*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-dekabr kuni yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag'ishlangan tantanali marosim doirasida Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilmalar vaziri Suhayl al-Mazruiy, Turkiya Respublikasi energetika va tabiiy resurslar vaziri Alparslon Bayroqdor boshchiligidagi delegatsiya, Ozarbayjon Respublikasi energetika vaziri Parviz Shahbozov, Qirg'iz Respublikasi energetika vaziri Taalaybek Ibrayev, Xitoy Xalqaro kommunikatsiya markazi raisi Lun Yuysyan, Xitoyning yetakchi kompaniyalari rahbarlari hamda O'zbekiston – Saudiya Ishibilarmonlar kengashi hamraisi, "ACWA Power" kompaniyasi rahbari Muhammad Abunayyan boshchiligidagi Saudiya Arabistoni kompaniyalari delegatsiyasini qabul qildi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infrazatuzilmalar vaziri Suhayl al-Mazru'i boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda BAanning "Masdar" kompaniyasi rahbari Muhammad Jamil al-Ramahi, "Etihad Water & Electricity" kompaniyasi rahbari Yusuf al-Ali va "TAQA Water Solutions" kompaniyasi rahbari Ahmad al-Shamsiy ham ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida prezident mamlakatimiz yetakchisiga BAA prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktum, vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon hamda Abu-Dabi Amirligi valiahdi Shayx Xolid Ol Nahayonning salomini yetkazdi.

O'zbekiston – BAA do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalarini muhokama qilindi.

Hamkorlik barcha yo'nalishlarda jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayiriboshlash hajmi, qo'shma korxonalar va aviataqotnavlarning soni barqaror oshib bormoqda. Loyihalar portfeli 20 milliard dollarga yetgan.

Transport-logistika, oziq-ovqat, konmetallurgiya, energetika hamda boshqa ustuvor yo'nalishlardagi loyihalarni tayyorlash va ilgari surish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda energetika sohasida birgina "Masdar" kompaniyasi bilan O'zbekiston hududlarida 1,5 milliard dollarlik 6 ta loyiha amalga oshirildi.

Bugun Buxoro viloyatida navbatdagi quyosh elektr stantsiyasi va energiya sqashlari tizimi ishga tushirildi, Qashqadaryo viloyatida 600 million dollardan ziyod qiymatdagi shunday inshootlari qurilishi boshlandi.

BAA kompaniyalari rahbarlari Prezidentimizga shamol elektr stantsiyasi va energiya sqashlari qvvatlarini, gidroelektr stantsiyalarini barpo etish rejalari hamda tozalash inshootlari qurilishining borishi to'g'risida ma'lumot berdi.

Turkiya Respublikasi energetika va tabiiy resurslar vaziri Alparson Bayroqdo boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda Turkiyaning yetakchi "Akasa Enerji" kompaniyasi rahbari Jamil Kazanchi va "Cengiz Enerji"

kompaniyasi rahbari Ahmet Chingiz ham ishtirokda edi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻanning salomi va samimiysi tilaklarini yetkazdi.

Oʻzbekiston bilan Turkiya oʻrtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va koʻp qirrali hamkorlik munosabatlari yanada rivojlanishiga masalalar muhokama qilindi.

Ikki tomonlama hamkorlikda yuksak darajaga erishilgan katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Oʻzaro savdo va investitsiya koʻrsatkichlari, qoʻshma korxonalar soni, toʻgʻridan toʻgʻri ravja aviaqatnovlar koʻpaymoqda.

 ***Davomi 2-beida***

► *Davomi 2-betda*

**Kuni kecha Toshkentda energetika sohasidagi obyektlar  
va yirik loyihalarni ishga tushirishga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali  
marosimda Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi  
boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan  
O'zbekistonning investitsiyalarni jalb qilish va energetika sohasidagi  
faoliyatini yuksak baholadi.**

President Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyari, siz investorlarga minnatdorlik bildirimgan. Aksincha, ularning barchasi sizga rahmat aytishi kerak. Chunki siz O'zbekistonda investorlarni muvaffaqiyatli qabuliyat yuritishi uchun o'ziga xos muhit yaratdingiz. Biz sarmoya kirittayotgan barcha o'yihalar doimo ko'magingiz bilan amalga oshiriladi. Buning uchun barcha investorlar sizga minnatdorlik bildiradi.

Bugungi kunda energetika sohasida amalga oshirilayotgan va bugun ishga tushiriladigan o'yihalar ham siz va hukumatimiz tomonidan energetika sohasidagi islohotlarga katta e'tibor qaratilayotganining belovosha isbotidir.

Har bir investor ko'plab-quvvatlashingizni doimo his qiladi. Prezident Janobi Oliyari, butun dunvo sizdan investorlar bilan

naqadar katta e'tibor qaratilayotganingizni yaqqol ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda sizning rahbarligingizda tom ma'noda inqilobiy o'zgarishlar ro'yi berdi. Sakkiz yil davomida mamlakatingiz oldinga katta qadam tashladi.

Energetika sohasida bildirgan barcha fikrlaringizga qo'shilgan holda, energiya davlatni ijtimo'iy-iqtisodiy rivojlantrishining asosiy ko'rsatkichi ekanini ta'kidlamoqchiman.

Yangi O'zbekistonning asosiy energiya manbai esa bu siz, hurmati Prezident. Siz ilhom manbai bo'lib, butun xalqqa o'mak bo'lyapsiz. Siz o'z kuchingiz, bilimingiz va g'ayratiningizni ayamaysiz. Nafaqat o'z xalqingizni, balki boshqa mamlakatlardagi hamkasblaringizni ham shunday global islohotlarni boshlashga ilhomlantiravsiz.

Men doimo e'tibor qaratadigan ikkita jihati bor. Hozir shunga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana shu sakkiz yil ichida siz qilgan ishlar, erishilgan natijalar tarix sahifalariga muhrlandi. Ular O'zbekiston solnomasiga zarhlar harflar bilan yozildi.

Albatta, biz O'zbekiston bilan hamkorlikda ishlashni davom ettirishga hamisha tayyormiz va bu biz uchun katta sharafdir. Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari va investorlari mamlakatimizga kelib, loyihalariningizda ishtirok etishga tayyor. Chunki bu yerda investorlar faoliyati uchun barcha qulayliklar yaratilgan.

Juda ko'p xorijiy mamlakatlarda bo'lgan va har doim, har qanday minbardan O'zbekistoni misol qilaman: O'zbekistonga boring, u mamlakatda yaratilgan sarmoyaviy muhit bilan, albatta tanishish deymen.

O'zbekistonga yorqin kelajak tilayman. Doimo duo qilamiz: toki siz va O'zbekistondan taralayotgan energiya dunyoning barcha mamlakatlariga taralib tursin.



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “BARQAROR ENERGETIKA – YANGI O‘ZBEKISTONNING KELAIAK SARI ISHONCHLI QADAMI” MAVZUSIDAGI ANJUMANDAGI NUTQI

## Boshlanishi 1-betda

Shu ma’noda, bugun ishga tushirilayotgan va yiliga 15 mingta transformator ishlab chiqaradigan “Angren Energo” hamda 155 ta gidroagregat tayyorlab beradigan “UzHydroPower” korxonalari katta istiqbolga ega, desak, to’g’ri bo’ladi.

Qadrli mehmonlar!

Energetika sohasida erishayotgan ulkan yutuq va marralarimizda sizlar kabi salohiyatli investorlar va ishonchli sheriklarimizning beqiyos hisssasi bor.

Fursatdan foydalanib, yurtimizga katta sarmoya kiritayotgan va eng ilg’or texnologiyalarni olib kelayotgan Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilmalar vaziri Suhayl al-Mazroui janoblariga, Turkiya Respublikasi energetika va tabiiy resurslar vaziri Alparslon Bayroqdor janoblariga, Ozarbayjon energetika vaziri Parviz Shabbazov janoblariga, Qirg’iz Respublikasi energetika vaziri Taalaybek Ibrayev janoblariga samimiy minnatdorlik bildiram.

Shuningdek, Saudiya Arabistonining “ACWA Power”, Turkiyaning “Akse Enerji”, “Cengiz Enerji”, Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar”, Xitoyning “China Energy”, “Datang”, “Sinoma”, “Poly”, “CNTIC”, “Eaglerise”, Fransiyaning “EDF”, “Vitalia”, “TotalEnergies”, Germaniyaning “Siemens Energy” va Qatarning “Nebras Power” kompaniyalariga, bundan tashqari, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlari vakillariga chuqur tashakkurimni izhor etaman.

Aziz do’stlar!

Bugun sizlar bilan birga soha rivojiga juda katta hissa qo’shadigan, qariyb 11 milliard dollarlik 42 ta yangi quvvat va infratuzilma obyektlarini ishga tushiramiz. Yana 21 ta yangi loyiha qurilishiga start beramiz. Xususan, hududlarimizda jami 3 ming 500 megavattli 16 ta quyosh, shamol, issiqlik va gidroelektr stansiyalarini foydalanishga topshiriladi.

Ular to’liq quvvatda ishlay boshlagach, yiliga 15 milliard kilovatt-soat elektr generatsiya bo’ladi. Natijada kelgusi yilda “yashil” energiya ishlab chiqarish hajmini 23 milliard kilovatt-soatga yetkazamiz. E’tibor bering, bu — O‘zbekiston

aholising yillik elektr energiya iste’moli to’liq qoplanadi deganidir.

Eng muhimi, toza energiya hisobiga tabiiy gaz sarfi salkam 7 milliard kub metr ga kamayadi. Atmosferaga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinadi.

Bugun 1 ming 245 megavattli 10 ta energiya saqlash tizimini ham ishga tushiryapmiz. Bu energiya eng ko’p iste’mol qilinadigan tig’iz vaqtlarda qo’shimcha 1,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini tarmoqqa uzatish imkonini beradi.

Hozir foydalanishga topshirilayotgan 11 ta yirik podstantsiya va 420 kilometr yuqori kuchlanishli tarmoqlar tizimning barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Albatta, biz erishgan natijalarimiz bilan to’xtab qolmaymiz. Kelgusi 5 yilda 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar hisobidan minglab sanoat va infratuzilma obyektlarini ishga tushirib, yuqori daromadli ish o’rinlarini yaratamiz.

Aholiga qulay shart-sharoit yaratish uchun “Yangi O‘zbekiston” massivlari va boshqa hududlarda 800 mingdan ortiq xonadonli, energiya tejamkor ko’p qavatli uy-joylar barpo etiladi.

IT, sun’iy intellekt va “buyumlar interneti” kabi yangi yo’nalishlardagi kompaniyalarga jozibador muhit yaratish uchun zamonaviy super kompyuter klasteri va data-markazlar sonini ko’paytiramiz.

Ayni paytda Saudiya Arabistonining “DataVolt” kompaniyasi 3 milliard dollarlik investitsiya hisobiga 500 megavattli data-markaz qurish bo’yicha ishlarni boshlaganini aytib o’tmoqchiman.

Bunday keng ko’lamli ishlarimiz elektr energiyasiga bo’lgan talab va ehtiyojini kamida 1,5 barobarga oshiradi. Shu bois, yaqin kelajakdagi rejalarimizga qisqacha to’xtalib o’taman.

Birinchidan, elektr energiyasiga oshib borayotgan ehtiyojni qoplash uchun 2030-yilgacha qo’shimcha 17 ming megavattidan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushiriladi.

Natijada “yashil” energiyaning jami generatsiyadagi ulushini 54 foizga yetkazamiz. Bugun Qoraqalpog’iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlarida qiymati 3 milliard 300 million dollar bo’lgan 3,5 ming megavattli “yashil” quvvatlarga start berilayotgani bu yo’ldagi katta qadam bo’ladi.

Yangi quvvatlarni yagona energiya tizimiga bog’lash uchun yuqori kuchlanishli 6 ming kilometr tarmoqlar tortiladi. Xususan, kelgusi yilning o’zida 1 ming kilometr tarmoqlar o’tkazilib, podstantsiyalarda 6 ming megavatt qo’shimcha quvvatlar yaratiladi.

Ikkinchidan, biz elektr energiyasi generatsiyasi yo’nalishidagi islohotlarimiz natijasida sohaga xorijiy sarmoyalarni davlat-xususiy sheriklik asosida to’g’ridan to’g’ri jalb etishda katta tajriba o’rtidirdik.

Joriy yildan nafaqat elektr energiyasini ishlab chiqarish, balki uni iste’molchilarga yetkazib berishda ham xususiy sheriklik tamoyillarini qo’lashni boshladik. Xususan, Samarqand hududiy elektr tarmoqlarini xususiy boshqaruvga berish bo’yicha Turkiyaning “Akse Elektrik” kompaniyasi bilan kelishuvga erishdik. Ushbu kompaniya loyiha doirasida tarmoqni operatsion boshqaruvga olib, investitsiya kiritadi, tarmoqlarni modernizatsiya qiladi, yo’qotishlarni bosqichma-bosqich 2 barobarga kamaytiradi. Natijada har yili o’rtacha 20 million dollar tejalandi.

Shunday tajriba asosida kelgusi yilda Jizzax va Sirdaryo, 2027-yilda Namangan va Toshkent viloyatlari elektr tarmoqlari boshqaruvini ham investorlarga taklif etamiz.

Uchinchidan, aholining muqobil energiya manbalaridan foydalanishini qo’llab-quvvatlash bo’yicha ishlarimizni jadal davom ettiramiz.

Yangi yilda Xitoy tajribasi asosida 300 ta mahalla hududida aholi bilan kooperatsiya orqali 107 megavattli quyosh stansiyalari o’rnatiladi. Bu ijtimoiy loyiha keng joriy etilib, 30 mingta kambag’al oilaga “yashil” energiya kirib boradi. Ular o’z ehtiyojidan ortiqcha elektr energiyasini tarmoqqa uzatib, daromad topadi.

Tadbirkorlarimiz ham suv resurslaridan unumli foydalanib, bu yil 40 megavattli kichik va mikro GESlar qurdilar. Natijada 120 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi va ular qo’shimcha daromad manbaiga ega bo’lishdi.

Kelgusi yilda 65 megavattli kichik va mikro GESlar barpo etiladi. Ushbu loyihalar hisobiga 80 mingta xonadonda elektr ta’minoti tubdan yaxshilanadi.

To’rtinchidan, yaqinda Braziliyada o’tgan COP-30 iqlim konferensiyasida biz o’z tashabbusimiz bilan Parij bitimi doirasida muhim majburiyatni zimmamizga oldik. Ya’ni 2035-yilgacha zararli gazlar emissiyasini 50 foizga qisqartirishni oldimizga maqsad qilib qo’ydik.

Bu borada Jahon banki bilan dunyoda ilk innovatsion “iCraft” loyihasini boshladik. Uning doirasida O‘zbekiston tomonidan kamaytirilgan 23 million tonna issiqxona gazlari hisobga olindi. Bunda karbon krediti tizimini yo’lga qo’yib, xalqaro darajada uglerod birliklari savdosini amalga oshirishga kirishdik.

Ta’kidlash o’rinliki, shu yilning o’zida 17 ta yirik sanoat korxonamiz “yashil” energiya bo’yicha xalqaro sertifikatlar tizimiga o’tdi. Ular ishlab chiqarishning 30 foizini “toza” energiyaga o’tkazgani hisobiga xalqaro bozorlarda mahsulotlarining jozibadorligi keskin oshmoqda. Kelgusi ikki yilda bunday korxonalarning sonini 100 taga yetkazamiz.

Beshinchidan, so’nggi yillarda generatsiya quvvatlarini sezilarli ravishda ko’paytinganir hisobiga qo’shni davlatlar bilan yagona energetika bozorini yaratish bo’yicha sheriklikni mustahkamladik.

Mintaqamizning gidroenergetika salohiyatidan samarali foydalanib, birgalikda boshqarish maqsadida kelgusi yili Qirg’iziston va Qozog’iston bilan “Qambar-ota GES-1” loyihasini moliyalashtirishga kirishamiz.

Shu o’rinda Yevropaga elektr energiyasini eksport qilish bo’yicha “yashil yo’lak” loyihasi doirasida yaqindan hamkorlik qilyotgan Ozarbayjon va Qozog’iston rahbariyatining qat’iy sa’y-harakatlarini alohida e’tirof etmoqchiman.

Qadrlı tadbir ishtirokchilari!

Biz bugun ishga tushirayotgan barcha loyihalar iqtisodiy o’sishni ta’minlab, kelajak avlodlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochadi. Bunday jadal harakatlarmiz va tashabbuslarimiz bilan biz yangicha modeldagi zamonaviy energetika tizimini albatta to’liq barpo etamiz.

So’zimizning yakunida mazkur loyihalarida faol ishtirok etayotgan energetika sohasi vakillariga, barcha ishchilar, muhandislar va xorijlik hamkorlarimizga yana bir bor samimiy minnatdorlik bildiram.

Barchangizga sihat-salomatlik, ulkan kuch-g’ayrat va omadlar tilab qolaman.

## AZMIDDIN SADRIDDINOVICH SADRIDDINOV



Mashinasozlik sohasidagi taniqli olim, Toshkent davlat texnika universiteti professori, O‘zbekistonda xizmat ko’rsatgan qishloq xo’jaligi mexanizatori Azmiddin Sadriddinovich Sadriddinov shu yil 4-dekabr kuni 89 yoshida vafot etdi.

A.Sadriddinov 1936-yil 26-iyunda Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug’ildi. O’rta maktabni tugatganidan so’ng Toshkent yengil sanoat institutida muhandis-mexanik mutaxasssligi bo’yicha ta’lim oldi. Mehnat faoliyatini O’rta Osiyo politexnika instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti)da katta laborant vazifasida boshladi. Ushbu o’quv dargohining aspiranturasida tahsil olib, dastlab nomzodlik, so’ngra doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Iste’dodli olim Toshkent davlat texnika universitetida katta o’qituvchi, dotsent, Mexanika, Traktor va qishloq xo’jaligi mashinasozligi fakultetlari dekani, birinchi prorektor, professor, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo’jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazining Toshkent viloyati bo’limi rahbari kabi

lavozimlarda samarali xizmat qilib, mamlakatimizda yuksak malakali kadrlar tayyorlash, agrar sohani zamon talablari asosida mexanizatsiyalashtirishga doir ilmiy ishlarni va qo’llanmalar tayyorlash, ularni amaliyotga joriy etish jarayonlariga munosib hissa qo’shdi.

Zahmatkash olim va pedagog 65 yildan ziyod vaqt mobaynidagi serqirra faoliyati davomida paxta terish mashinalarini takomillashtirish bo’yicha samarali tadqiqotlar olib bordi, ushbu yo’nalishda ko’plab maqolalar, risola va monografiyalar, amaliy ishlarni va metodik qo’llanmalar yaratdi. Ayniqsa, agrotarmoq rivoji uchun dolzarb ahamiyatga ega bo’lgan 40 dan ziyod ilmiy loyihalar, davlat grantlari va xo’jalik shartnomalari asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilgani, paxta terish mashinalarini takomillashtirish bo’yicha laboratoriya bazasiga asos solgani mamlakatimiz qishloq xo’jaligida texnik va texnologik islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi.

Ustoz olim tajribali pedagog sifatida ko’plab shogirdlar tayyorladi, uning rahbarligida o’nlab nomzodlik va 5 ta doktorlik ilmiy ishi himoya qilindi.

A.Sadriddinovning mamlakatimiz qishloq xo’jaligi mashinasozligini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekistonda xizmat ko’rsatgan qishloq xo’jalik mexanizatori” faxriy unvoni, “Do’stlik” va “Mehnat shuhrati” ordenlari bilan taqdirlandi.

Taniqli olim va pedagog, yoshlarning mehribon ustози, samimiy va kamtarin inson Azmiddin Sadriddinovning xotirasi qalbmizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV

## YIRIK ENERGETIKA QUVVATLARI IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLAB, KELAJAK AVLODLARIMIZ UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ESHIGINI OCHADI

## Boshlanishi 1-betda

Eng muhimi, toza energiya hisobiga tabiiy gaz sarfi salkam 7 milliard kub metr ga kamayadi. Atmosferaga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinadi.

Foydalanishga topshirilayotgan loyihalar orasida 1 ming 245 megavattli 10 ta energiya saqlash tizimi ham bor. Bu energiya eng ko’p iste’mol qilinadigan tig’iz vaqtlarda qo’shimcha 1,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini tarmoqqa uzatish imkonini beradi.

Qo’shimcha ravishda ishga tushirilayotgan 11 ta yirik podstantsiya va 420 kilometr yuqori kuchlanishli tarmoqlar tizimning barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

Yangi tashkil etilgan yiliga 15 mingta transformator ishlab chiqaradigan “Angren Energo” hamda 155 ta gidro-agregat tayyorlab beradigan “UzHydroPwer” korxonalari iqtisodiyotimizga muhim hissa qo’shadi.

Davlatimiz rahbari marosimdagi nutqida ushbu tarixiy voqea O‘zbekistondan barqaror rivojlanishi yo’lidagi yana bir amaliy qadam bo’lishiga ishonch bildirdi.

— Bugun jadal sur’atlarda o’sib borayotgan iqtisodiyotimiz va aholining talab hamda ehtiyojidan kelib chiqib, energetika tizimida katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Biz bu yo’nalishda ilkita muhim maqsadga erishishni asosiy vazifa qilib belgilaganmiz. Birinchisi — barcha tarmoq va hududlar uchun ishonchli va ulduksiz energiya ta’minotini yo’lga qo’yish. Ikkinchisi esa ana shu rejamizni zamonaviy, ekologik toza va qayta tiklanuvchi muqobil manbalar hisobidan amalga oshirishdir, — dedi Prezidentimiz.

So’nggi yillarda energetika tizimiga 35 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, 9 ming megavatt yangi quvvatlar ishga tushirilgani ta’kidlandi.

Natijada elektr ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soatdan joriy yilda 85 milliard kilovatt-soatga yetdi.

E’tiborli jihati, salkam 5 ming megavattli quyosh va shamol, 400 megavattli gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi. Jami generatsiya quvvatlarida “yashil” energiyaning ulushi bu yil 30 foizga yetkazildi.

Bundan tashqari, xususiy sektor, aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida 2 ming megavattli kichik quyosh panellari o’rnatildi. Ularda shu yilning o’zida qo’shimcha ravishda 2 milliard kilovatt-soatga yaqin muqobil energiya ishlab chiqarildi. Shuningdek, butun mamlakatimiz bo’ylab 69 ming kilometr elektr tarmoqlari, 14 mingta transformator va yuqori kuchlanishli podstantsiyalar yangilandi.

Sohadagi bunday o’zgarishlar mahalliy korxonalar rivojiga ham katta turki bermogqda. Ushbu korxonalar tomonidan yangi qurilayotgan elektr stansiyalari va tarmoqlariga yil boshidan

buyon 700 million dollarlik qurilish materiallari, metall konstruksiyalar, kabel o’tkazgichlar, elektr qurilmalari yetkazib berildi, loyihalash-injiniyirng va qurilish xizmatlari ko’rsatildi.

Misol uchun, Norin kaskad gidroelektr stansiyasining 38 megavattli ilk gidroelektr stansiyasi to’liq mahalliy mahsulotlardan foydalanigan holda ishga tushirildi.

Davlatimiz rahbari energetika sohasida erishilayotgan ulkan yutuq va marralarda investorlar va mamalakatimizning xalqaro sheriklarining beqiyos hisssasi borligini qayd etdi.

O‘zbekiston yetakchisi kelgusi 5 yilda 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar hisobidan minglab sanoat va infratuzilma obyektlarini ishga tushirib, yuqori daromadli ish o’rinlari yaratilishini ma’lum qildi.

IT, sun’iy intellekt va “buyumlar interneti” kabi yangi yo’nalishlardagi kompaniyalarga jozibador muhit yaratish uchun zamonaviy superkompyuter klasteri va data-markazlar sonini ko’paytirish nazarda tutilgan.

Buning uchun ayni paytda Saudiya Arabistonining “DataVolt” kompaniyasi 3 milliard dollarlik investitsiya hisobiga 500 megavattli data-markaz qurish bo’yicha loyihani amalga oshirishga kirishgan.

Bunday keng ko’lamli ishlar elektr energiyasiga bo’lgan talab va ehtiyojni kamida 1,5 barobarga oshiradi. Shu bois, Prezident yaqin kelajakdagi rejalarga to’xtalib o’tdi.

Birinchidan, elektr energiyasiga oshib borayotgan ehtiyojni qoplash uchun 2030-yilgacha qo’shimcha 17 ming megavattidan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushiriladi. Natijada “yashil” energiyaning jami generatsiyadagi ulushi 54 foizga yetkaziladi.

Yangi quvvatlarni yagona energiya tizimiga bog’lash uchun yuqori kuchlanishli 6 ming kilometr tarmoqlar tortiladi. Xususan, kelgusi yilning o’zida 1 ming kilometr tarmoqlar o’tkazilib, podstantsiyalarda 6 ming megavatt qo’shimcha quvvatlar yaratiladi.

Ikkinchidan, xorijiy sarmoyalarni davlat-xususiy sheriklik asosida jalb etishni kengaytirish. Joriy yildan xususiy sheriklik tamoyillari nafaqat elektr energiyasini ishlab chiqarish, balki uni iste’molchilarga yetkazib berishda ham qo’llanmoqda.

Xususan, Turkiyaning “Akse Elektrik” kompaniyasi bilan Samarqand hududiy elektr tarmoqlarini xususiy boshqaruvga berish bo’yicha kelishuvga erishilgan.

Ushbu kompaniya loyiha doirasida tarmoqni operatsion boshqaruvga olib, investitsiya kiritadi, tarmoqlarni modernizatsiya qiladi, yo’qotishlarni bosqichma-bosqich 2 barobarga kamaytiradi. Natijada har yili o’rtacha 20 million dollar tejalandi.

Shunday tajriba asosida kelgusi yilda Jizzax va Sirdaryo, 2027-yilda Namangan va Toshkent viloyatlari elektr tarmoqlari boshqaruvi ham investorlarga taklif etiladi.

Uchinchidan, aholining muqobil energiya manbalaridan foydalanishini faol qo’llab-quvvatlash.

Yangi yilda 300 ta mahalla hududida aholi bilan kooperatsiya orqali 107 megavattli quyosh stansiyalari o’rnatiladi. Bu ijtimoiy loyiha 30 mingta kambag’al oilani “yashil” energiya bilan ta’minlash imkonini beradi. Ular o’z ehtiyojidan ortiqcha elektr energiyasini tarmoqqa uzatib, daromad topadi.

Mamlakatimiz tadbirkorlari bu yil 40 megavattli kichik va mikro GESlar qurdi. Natijada 120 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi va ular qo’shimcha daromad manbaiga ega bo’lishdi.

Kelgusi yilda yana 65 megavattli kichik va mikro GESlar barpo etiladi. Ushbu loyihalar hisobiga 80 mingta xonadonda elektr ta’minoti tubdan yaxshilanadi.

To’rtinchidan, yaqinda Braziliyada o’tgan COP-30 iqlim konferensiyasida mamlakatimiz o’z tashabbusi bilan Parij bitimi doirasida muhim majburiyatni zimmasiga oldi: O‘zbekistonda 2035-yilgacha zararli gazlar emissiyasi 50 foizga qisqartirilishi maqsad qilindi.

Bu borada Jahon banki bilan dunyoda ilk innovatsion “iCraft” loyihasi ishga tushirildi. Uning doirasida O‘zbekiston tomonidan kamaytirilgan 23 million tonna issiqxona gazlari hisobga olindi. Xalqaro darajada uglerod birliklari savdosi yo’lga qo’yildi.

Ta’kidlash joiz, shu yilning o’zida 17 ta yirik sanoat korxonamiz “yashil” energiya bo’yicha xalqaro sertifikatlar tizimiga o’tdi. Kelgusi ikki yilda bunday korxonalar soni 100 taga yetkaziladi.

Beshinchidan, qo’shni davlatlar bilan yagona energetika bozorini yaratish bo’yicha sheriklikni mustahkamlash.

Mintaqa gidroenergetika salohiyatidan samarali foydalanib, birgalikda boshqarish maqsadida kelgusi yili Qirg’iziston va Qozog’iston bilan “Qambar-ota GES-1” loyihasini moliyalashtirishga kirishiladi.

Davlatimiz rahbari Yevropaga elektr energiyasini eksport qilish bo’yicha “yashil koridor” loyihasi doirasida yaqindan hamkorlik qilyotgan Ozarbayjon va Qozog’iston rahbariyatining qat’iy sa’y-harakatlarini alohida e’tirof etdi.

— Biz bugun ishga tushirayotgan barcha loyihalar iqtisodiy o’sishni ta’minlab, kelajak avlodlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochadi. Bunday jadal harakatlarmiz va tashabbuslarimiz bilan biz yangicha modeldagi zamonaviy energetika tizimini albatta to’liq barpo etamiz, — deya ta’kidladi Prezidentimiz.

Tadbir yakunida O‘zbekiston Prezidenti ramziy dastakni bosib, 42 ta energetika obyektining ishga tushirilishi hamda navbatdagi 21 tasining qurilishi boshlanishiga start berdi.

O‘ZA

## Boshlanishi 1-betda

Turkiya kompaniyalarining mam-lakatimizdagi samarali faoliyati, ular bilan birgalikda umumiy quvvati 1,8 gigavatt bo’lgan 1 milliard dollarlik zamonaviy elektr stansiyalarini qurish loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilgani alohida ta’kidlandi.

Energetika va geologiya sohalarida, shu jumladan, zamonaviy texnologiyalarni mahalliyashtirish, energetika uskunalarini ishlab chiqarish, taqsimlash tarmoqlarini boshqarishni takomillashtirish, istiqbolli konlarni birgalikda o’zlashtirish va soha uchun kadrlar tayyorlash bo’yicha yangi kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

Ozarbayjon Respublikasi energetika vaziri Parviz Shabbazov bilan uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning samimiy salomi va ildiz tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sherikligi va ittifoqchiligini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Barcha darajalardagi aloqalar faol ekani, tovar ayirboshlash barqaror o’sayotgani va energetika sohasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilinayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Neft va gaz sohasi, geologiya-qidiruv ishlari, “yashil” energiyani rivojlantirish hamda kimyo sanoatida qo’shma loyihalarini ilgari surish muhimligi ta’kidlandi.

Qirg’iz Respublikasi energetika vaziri Taalaybek Ibrayev bilan uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Qirg’iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning samimiy salomini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Qirg’iziston o’rtasidagi do’stlik, yaxshi qo’shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari, shu jumladan, energetika sohasida yanada mustahkamlash masalalari ko’rib chiqildi.

Ikki tomonlama munosabatlar yuqori sur’atda rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash 17 foizga oshib, yuk tashish hajmi ortib bormoqda. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Energetika sohasida o’zaro manfaatli hamkorlik yo’lga qo’yilgan. Elektr energiyasi barqaror yetkazib berilmogda va tranzit loyihalarida, “yashil” energetikada istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmogda.

O‘zbekiston yetakchisi suv energetikasi sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, mintaqaviy ahamiyatga molik qo’shma loyihalarni, eng avvalo, “Qambar-ota GES-1”ni qurish loyihasini samarali ilgari surish muhim ekani ta’kidladi.

Xitoy Xalqaro kommunikatsiya markazi raisi Lun Yuysyan bilan uchrashuvda O‘zbekiston bilan Xitoy o’rtasidagi yangi

davrdagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Markaz mamlakatimizning Xitoy bilan ko’p qirrali hamkorligini mustahkamlashga katta hissa qo’shayotgani qayd etildi.

Birgalikda infratuzilmarni rivojlantirish, investitsiyalar va “yashil” sanoatda qator loyihalar amalga oshirildi. Geologiya va qishloq xo’jaligi sohalarida umumiy qiymati 1 milliard dollardan ziyod loyihalar ishlab chiqilmogda.

Ta’lim, fan, madaniyat va turizm sohalaridagi faol almashinuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

1984-yilda tashkil etilgan markaz dunyoning 160 dan ortiq mamlakati bilan madaniy, ilmiy va ma’rifiy aloqalar o’rnatgan. Uchta xalqaro vakolatxonasi mavjud.

Xitoyning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan muzokaralar davomida amaliy hamkorlikni kengaytirish, energetika sohasida zamonaviy texnologiyalar va muhandislik yechimlarini joriy etishga qaratilgan o’zaro manfaatli kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Xitoy kompaniyalarining O‘zbekistonda loyihalar amalga oshirishga qiziqishi ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Birgina joriy yilda Xitoydan 15 milliard dollardan ziyod to’g’ridan to’g’ri investitsiyalarni o’zlashtirish rejalashtirilgan, qo’shma loyihalarimiz umumiy portfeli esa qariyb 90 milliard dollari tashkil etmoqda.

Ko’p qirrali hamkorlikning muhim yo’nalishi sifatida energetika sohasiga alohida e’tibor qaratildi. Xitoylik sheriklar ishtirokida umumiy quvvati qariyb 10 gigavatt, qiymati 9 milliard dollardan ort



**KONSTITUTSIYA – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!**

# KONSTITUTSIYA VA XOTIN-QIZLAR: YANGI O‘ZBEKISTONNING TENGLIK VA TARAQQIYOT YO‘LI

**Y**angi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi jadal bosqichidagi demokratik islohotlar

inson manfaatlarini, uning sha’ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini ta’minlash tamoyillariga tayanadi. Ayniqsa, xotin-qizlarning huquqiy himoyasi, ijtimoiy faolligini oshirish, iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, davlat boshqaruvi, biznes, ilm-fan va ijtimoiy hayotdagi faol ishtirok uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xotin-qizlar uchun ta’lim, tadbirkorlik, kasb-hunar o‘rganish, sog‘liqni saqlash va oilaviy muhitda huquqiy kafolatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.



**Zulayho MAHKAMOVA,**  
Bosh vazir o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi

Mintaqamizda ming yillar davomida shakllanib kelgan milliy davlatchilik an‘analari, xalqimizning adolat, insof va hurmat kabi ulug‘ qadriyatlarga tayangan hayotiy falsafasi bugungi demokratik islohotlarning ma’naviy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu tarixiy va o‘zgarmas tamoyillar davlat boshqaruvida, jamiyat hayotida inson huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini ustuvor bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Mana shu yuksak tafakkur hamda xalqimizning tarixiy yuksak huquqiy ongi bugungi kun islohotlari ruhiyati bilan musharakdir.

Buyuk mutafakkirlarimiz asrlar davomida inson manfaatini ulug‘lash, oila va jamiyat barqarorligini ta’minlashni barcha ishlarning markaziga qo‘yib kelgan. Bugun esa ana shu tarixiy meros, xalqimizga xos adolatparvarlik va insonparvarlik tamoyillari yangilangan Konstitutsiyamiz mazmuni va mohiyatida yanada butun, zamonaviy huquqiy mezon sifatida o‘z ifodasini topmoqda.

Keng ko‘lamli islohotlarning bosh maqsadi jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish, inson huquqlari va erkinliklarini samarali ta’minlash, shuningdek, Bosh qonunimizda belgilangan konstitutsiyaviy prinsiplarni hayotga tatbiq etishdan iborat. Joriy yilda 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bir guruh xotin-qizlarni taqdirlash tantanali marosimida: “Yangilangan Konstitutsiyamizdagi ijtimoiy davlat tamoyiliga

muvofig, ayollarni ijtimoiy himoya qilish ham yangicha tashkil etilmoqda”, deya ta’kidlagan edi davlatimiz rahbari.

Chindan ham, xalqimiz huquqiy ongi va siyosiy faolligining yuksak namunasi sifatida umumxalq referendumini orqali yangidan qabul qilingan Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotida inson manfaatlariga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalishlar majmuasidir. Unda xalqning bevosita ishtirokida ilgari surilgan taklif va tashabbuslar, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, oila, farzandlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoya va inson qadrlari ulug‘lovchi qator yangi normalar o‘z ifodasini topdi. Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu yangiliklar nafaqat huquqiy kafolatlarni mustahkamladi, balki “inson — jamiyat — davlat” tamoyili asosida himoya mexanizmini yangi bosqichga ko‘tardi.

Shu bilan birga, xotin-qizlar manfaatlarini ta’minlash, iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan ishlar yanada izchil davom etmoqda. Prezidentimiz tomonidan shu hafta, aniqroq aytganda, 4-dekabr kuni imzolangan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon ham bu boradagi amaliy qadamlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkur hujjat xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik faoliyatini birlamchi yo‘lga qo‘yish va bandligini ta’minlashni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Farmonga muvofiq, mahallalardagi xotin-qizlar bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyati yanada rivojlantirilib, ular orqali ayollarga tikuvchilik, qandolatchilik, fitness, shepping, kasb-hunarga o‘qitish kabi yo‘nalishlarda qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, 2026-2027-yillarda “Hamroh” xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash kompaniyasi tomonidan 6 ming ayolning loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun 2 trillion so‘m ajratilishi, 2,8 ming ayolning tadbirkorlikka o‘qitilishi va 2



ming nafarining amaliyotda hamrohlik asosida qo‘llab-quvvatlanishi belgilab qo‘yildi.

Ushbu farmon xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, vujudga kelayotgan tashabbuslarini amaliy jihatdan rag‘batlantirish va ishbilarmon ayollar safini yanada kengaytirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shubhasiz, Bosh qonunimizda belgilangan “inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, degan prinsip bugungi islohotlarning bosh mezoniga aylanib ulgurdi. Bu inson qadrlarining yuksak ekanini, uning huquq va manfaatlarining oliy darajada muhofaza qilinishi, qolaversa, oila instituti, xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeini yuksaltirish, ular uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan euzu maqsadlarni ham o‘zida mujassam etadi. Zotan, oilaning barqaror va farovonligi jamiyat ravnaqi, millat taraqqiyoti va kelajak avlodning kamolotini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.



Darhaqiqat, inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bosh tamoyillaridandir. Shu ma’noda, xotin-qizlarning mehnat qilish, o‘z salohiyatini namoyon etish, oila va ijtimoiy hayotda munosib o‘rin egallashi uchun huquqiy asoslar yaratildi hamda amaliyotga keng joriy etilmoqda. Yangilangan

Konstitutsiyamizda belgilanganidek, har bir shaxs xavfsiz, qulay va kamsitishsiz mehnat sharoitida ishlash, adolati haq olish huquqiga ega. Ayniqsa, “Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ish haqini kamaytirish taqiqlanadi”, degan konstitutsion norma ayollarning mehnat bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlamoqda. Bu huquqiy kafolatning amaliy ijrosi sifatida keyingi yillarda qariyb 872 ming xotin-qiz kasb-hunar, tadbirkorlik va axborot texnologiyalari sohaslarida o‘qitildi, 15 trillion so‘mdan ortiq kredit mablag‘i asosida 204 ming xotin-qiz o‘z biznesini yo‘lga qo‘ydi. Bu nafaqat iqtisodiy mustaqillik, balki xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan konstitutsion kafolatlar hayotga tatbiq etilayotganining yorqin dalilidir.

Jamiyatda ayollar va erkaklarning teng huquqli ishtirokini ta’minlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol bo‘lishi demokratik huquqiy davlatning muhim mezonlaridan. Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”, degan qoida bugun hayotda izchil namoyon bo‘lib, uni amalga oshirish uchun institutsional mexanizmlar shakllantirildi.

Jumladan, vazirlik va idoralarda gender maslahatchi kengashlari 155 tadan 4000 tagacha ko‘paydi, xotin-qizlarning davlat boshqaruvi tizimiga kirib borishi, siyosiy faolligini oshirish tadbirlari ko‘rilmoqda.

Ta’lim sohasida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda: ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravar oshirildi. 3933 xotin-qiz davlat granti, 845 nafari to‘lov-kontrakt asosida oliy ta’limga qabul qilindi, 200 mingdan

ortiq xotin-qiz oliy ta’lim maskanlariga qadam qo‘ydi. Bu ko‘rsatkichlar tenglik siyosati nafaqat qonunlarda, balki hayotda amal qilayotganini namoyon etmoqda.

Barqarorlik va taraqqiyotning eng asosiy mezonini mustahkam oltidir. Mamlakatimizda oilalar farovonligi, yosh avlod har tomonlama kamol topishi, xotin-qizlarning huquqiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi ijtimoiy siyosatimiz, rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishiga aylanadi.

Masalan, Konstitutsiyada “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir”, deb mustahkamlab qo‘yilgan ham ana shu euzu maqsadlarning huquqiy asosini belgilab berdi. Aynan shu konstitutsion tamoyilga tayangan holda mamlakat bo‘ylab 202 ta oila va xotin-qizlar maskani, Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari va “Mas’uliyatli ota-onalik” loyihalarini amalga oshirilmoqda. Ular orqali yoshlarning hayotga tayyorlanishi, psixologik va huquqiy ko‘mak olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Joriy yilda 100 mingdan ziyod yosh oilaviy hayotga tayyorgarlik kurslariga jalb etildi, tug‘ish yoshidagi 8,3 milliondan ortiq ayol tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Buni Konstitutsiyada belgilangan “Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi” degan prinsiplarning amalga oshirish uchun institutsional mexanizmlar shakllantirildi.

Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalariga ko‘maklashish, ijtimoiy yordamni adolati, aniq maszilli hamda shaffof tarzda tashkil etish maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi mutlaqo yangi va o‘ziga xos mexanizm yaratildi.

Birgina “Ayollar daftari” bilan ishlash tizimi orqali 2021-2025-yillarda ehtiyojmand, kam ta’minlangan 4,5 million xotin-qizga amaliy yordamlar ko‘rsatildi.



**Raxat ISMOILOV,**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyaviy sudi sudyasi,  
Qoraqalpog‘iston  
Respublikasida xizmat  
ko‘rsatgan yurist

Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyilining ayni ustuvor yo‘nalishlari batafsil ifoda etilgan. Xususan, mamlakatimiz aholisi uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma, malakali tibbiy xizmat, sifatlil ta’lim, ijtimoiy himoya va sog‘lom ekologik muhit yaratish, iqtisodiyotni mustahkamlash, ijtimoiy, huquqiy, ekologik va boshqa sohalarni rivojlantirish istiqbollari ko‘rsatib berilgan.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2018-yilda 38 foizni tashkil etgan bo‘lsa, islohotlar natijasida 78 foizga yetkazildi.

Byudjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo‘lgan ayollarga har oy uchun minimal iste’mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan homiladorlik va tug‘ish nafaqasini tayinlash hamda to‘lash tartibi belgilandi. Bunda xodimning farzandi tug‘ilgunga qadar minimal iste’mol xarajatining 4 baravari miqdorida nafaqa to‘lanishi qayd etildi. Bu maqsadda Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasidan 56,6 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ xususiy sektorlarda ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqasi tarzida to‘lab berildi.

Kechki smenada xotin-qizlar ishlaydigan tashkilotlar huzurida tashkil etiladigan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining ish haqi xarajatlarini qoplash uchun davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan subsidiya to‘lab berilmoqda.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni davlat himoyasiga olish, himoya orderi berish mexanizmi yaratildi.

Genderga oid zo‘ravonlikning oldini olish maqsadida qonunchilikka oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik, shilqimlik hamda shaxsning sha’nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni oshkor qilish bo‘yicha alohida moddalar kiritildi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, og‘ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash maqsadida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda uning hududiy bo‘linmalari xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudlarga berilgan da’volar yuzasidan davlat boji to‘lashdan ozod qilindi. Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda oilani mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rib qilinishi majburiy bo‘lgan qadimiy qonun qoidasidir.

Bundan tashqari, xotin-qizlarni kafillik asosida muddatidan oldin jazodan ozod etish tizimi yaratildi.

Xulosa o‘rinda ta’kidlash joizki, yangilangan Konstitutsiyada belgilangan tamoyillar va yangi normalar huquqiy hujjatlar to‘plami bo‘lishi bilan birga, yangi O‘zbekiston taraqqiyotining inson qadrlari ulug‘lashga qaratilgan “yo‘l xaritasi” hamdir. Xotin-qizlar uchun yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlar ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashi, o‘z salohiyatini to‘la namoyon etishi va barqaror taraqqiyot jarayonlarida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bugun xotin-qizlar islohotlarning amaliy ijrosi, jamiyat taraqqiyotining faol ijodkoriga aylanmoqda. Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq va imtiyozlar esa xotin-qizlar tafakkuridagi o‘zgarishlar, jamiyatdagi faollikning ortishi va yangi avlodning yuksak bilimlil, tashabbuskor va vatanparvar bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiluvchi barqaror huquqiy poydevor bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy mezonini inson qadri, huquq kafolati va jamiyat farovonligini ta’minlashdan iborat ekan, bu jarayonda xotin-qizlarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi ushbu ulkan maqsadlarning uzviy davomi sifatida istiqboldagi reja va maqsadlarimizning asosini tashkil etadi. Zotan, yurtimizda adolat ustuvordligi, inson qadrlari ulug‘lash, oila va xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish borasidagi islohotlar xalqimiz azaldan qadrlagan “bir yoqadan bosh chiqarish”, “birlikda kuch” kabi milliy g‘oyalarni o‘zida tamsil etgan, taraqqiyot sari intilgan xalq irodasini ifodalaydi.



**Yangi Konstitutsiyamizda**  
“Inson – jamiyat – davlat” degan ustuvor tamoyil qaror topdi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyatning ma’naviy asoslari, davlat organlari va tashkilotlarining mas’uliyati aniq belgilab berildi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, mehnat, atrof-muhit muhofazasi kabi sohalardagi kafolatlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bugun yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida Konstitutsiyamizda aks etgan demokratik qadriyatlar, adolat va insonparvarlik tamoyillari asosida yangi huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Shu sababli ham Bosh qonunimizga hurmat va sadoqat nafaqat huquqiy, balki

## MILLIY BIRLIK VA FUQAROLIK MAS’ULIYATI RAMZI

ma’naviy burchdir. Konstitutsiyamiz bizga tinchlik, barqarorlik va mamlakatimiz kelajagi uchun mas’uliyat hissini singdiradi.

Bosh qonunimizda O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanini qat’iy belgilab qo‘yilgan. Shu o‘rinda “ijtimoiylik” tushunchasiga alohida to‘xtalsak.

Albatta, bu har bir insonga e’tibor va g‘amxo‘rlik deganidir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadaqij majburiyatlarini bilan bog‘liq normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Bunda har kimning uy-joyga ega bo‘lishi, munosib mehnat sharoitida ishlashi, kasb va faoliyat turini erkin tanlashi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi kabi huquqlari jamlangan.

Keyingi 7-8 yilda erishilgan yutuqlar: iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z va e’tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohaslaridagi yuzlab chekllovlar olib tashlangani, naqd pul, valyuta ayirboshlash, kredit masalalaridagi muammolar hal etilgani va boshqa ijobiy sa’y-harakatlarning ortga qaytmasilgini konstitutsiyaviy jihatdan ta’minlash zarurati bor edi. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat

bugungi, balki kelajak avlodlar ham erkin-erkin foydalanishi uchun ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrab qo‘yish talab etildi. Bu — masalaning faqat bir jihati. Masalaning ikkinchi jihati esa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi talabi darajasida tushuntirish hamda undan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishdir.

Masalan, shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emas. Ushbu qoida odamlarni noqonuniy qamoqqa olish yoki asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Shu tariqa odamlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq barcha harakatga faqat sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi mustahkamlandi. Ya’ni odil sudlovni amalga oshirishda “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” institutlari yanada kengaytirildi. Birinchi marta ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma, ya’ni “sukut saqlash” huquqi berildi. Unda har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanini belgilandi. Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqarolar o‘zining buzilgan huquq va erkinliklarini, boshqalarning huquqlarini buzmagani holda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Yagona shart shuki, fuqarolar tomonidan o‘zini o‘zi

himoya qilishda qo‘llanadigan usullar yoki choralar qonun hujjatlarida taqiqlanmagan bo‘lishi lozim. Shu bois, qonunlardagi noaniqliklar inson manfaatiga hal etilishi shart va zarurligi belgilandi.

Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonlarga nisbatan qo‘llanadigan huquqiy ta’sir choralarini mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerakligi mustahkamlandi. Qonunchilikda belgilanmagan majburiyatni hech kim o‘z rozilgisiz zimmasiga olishi mumkin emasligi qayd etildi. Bu norma odamlar hayotini yanada yengillastirdi.

Shuningdek, davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi. Ushbu normaning kiritilishi jamiyatimizda oilaning mustahkamligi va obro’sini barqaror ta’minlashga zamin yaratdi. Farzandlarni tarbiyalash, ularga ta’lim berish, barkamol etib voyaga yetkazish otanonaning burchi sifatida belgilandi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatlarini sifatida qayd etildi.





2025-yil 6-dekabr, 253-son

Jarayon

Soʻnggi oʻn yillikdagi global iqlim oʻzgarishi: suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, ayrim oʻsimlik va hayvon turlarining yoʻqolishi, oʻrmon va daraxtzorlar maydonining qisqarishi, ozon qatlamining yemirilishi kabi ekologik muammolar barcha davlat va xalqlar uchun jiddiy tashvish uygʻotmoqda.

Asliddin NURIDULLAYEV,  
Jamoat xavfsizligi universiteti  
kafedra boshligʻi, yuridik fanlar  
doktori, dotsent

Ayni holatdan kelib chiqib, mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni taʼminlash boʻyicha keng koʻlamli islohotlar oʻtkazildi. Bu borada xalqimiz tafakkurining yuksak namunasi sifatida 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya ekologik barqarorlik va qulay atrof-muhitni taʼminlashning mustahkam poydevori boʻldi.

Bosh qonunimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolarning qulay atrof-muhitda yashash huquqini taʼminlash borasidagi muhim huquqiy mexanizmlar, insonning ekologik huquqlariga oid kafolatlar hamda davlat organlarining bu boradagi majburiyatlari belgilab berildi.

Birinchidan, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini koʻpaytirish, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlash vazifasi Konstitutsiyaning muqaddimasidayoq oʻzbek xalqining ulugʻvor maqsadlaridan biri sifatida mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning muqaddimasida xalqimizning koʻp asrlik orzu-intilishlari va maqsadlari aks etgan, atrof-muhitni muhofaza qilishning bosh qonunimiz muqaddimasidan oʻrin olgani esa muhim mafkuraviy va yoʻnaltiruvchi ahamiyatga ega.

Bu borada mamlakatimiz qisqa muddatda bioxilma-xillikni muhofaza qilish masalalari boʻyicha 4 ta, shuningdek, transchegaraviy suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish toʻgʻrisidagi 2 ta konvensiya, BMTning Iqlim oʻzgarishi toʻgʻrisidagi doiraviy konvensiya va Kioto protokoli hamda Parij bitimi, Ozon qatlami muhofaza qilish toʻgʻrisidagi konvensiya va Monreal protokoli, Chiqindilarni transchegaraviy tashishni tartibga soluvchi Bazal konvensiyasi, Turgʻun organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokgolm konvensiyasi kabi jami 13 ta xalqaro konvensiya va bitimga qoʻshilgani bu borada eʼlon qilingan maqsadlarni roʻyobga chiqarish uchun muhim qadam boʻldi.

Qolaversa, 2025-yilning “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot” yili deb eʼlon qilinishi ham xalqimizning ekologik intilishlariga mosdir. Joriy yilgi davlat dasturi yurtimizda barqaror rivojlanishni taʼminlash, aholi salomatligi va farovonligini oshirish, davlat organlari, jamoatchilik va har bir fuqaroning ekologik muammolarni hal etish jarayonida faol ishtirok etishiga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar uchun turtki boʻldi.



Shuvullarning ovozga husnat chalingani kabi ohang joʻr boʻlib, goh balandlab, goh pasayadi. Bola qadam tashlashdan toʻxtab, yana eshitishga intiladi. Tarixiy Oqsaroy. Ichkariga kirish imkoni yoʻq. Eshiklariga qulf solingan. Ammo bu shovqin qay tomondan kelyapti? Muhammadjon gir aylanib, bino atrofiga nazar soladi. Gohida bir joyda toʻxtab qoladi. Butun vujudi quloqqa aylanib, jim nafas olishga intiladi. Bir payt ikki yondagi baland binolar oʻrtasiga kelib, ovoz qayerdan kelayotganini anglagandek boʻladi. Ancha paytgacha samoga tikilib, inshoot tepasidagi ayri joydan oʻtayotgan shamol tezligi taʼsiridan shuvullangan ovoz chiqayotganini anglaydi. Kattalarning aytishicha, Oqsaroy binosi ilgari bus-butun, yaxlit inshoot boʻlgan. Keyinchalik bosqinlar taʼsirida koʻp joyiga shikast yetgan. Uni endi asl holiga keltirish imkonsiz. Buni balki oʻzi eplab koʻra...

Shu-shu, Muhammadjon maktabdan qaytgan paytlari uyda loydan oʻzicha nimalarnidir yasaydigan boʻldi. Keyinchalik turli

koʻrinishdagi haykalchalar yasashga kirishdi. Ammo yasagan buyumlaridan unchalik ham koʻngli toʻlmagani uchun birovga koʻrsatishga iymnardi. Ulgʻaygach, bildiki tarixiy inshootni asl holicha saqlash zarur. Shu bois, oʻzi sevgan yumush — haykalchalar yasash bilan mashgʻul boʻlishni maʼqul koʻrdi. Lekin birgina xohishning oʻzi bilan biror natijaga erishib boʻlmadi. Shu kunlarda aynan Shahrisabz shahridagi tadbirkordan sotish uchun oʻziga xos haykalchalar yasab berish taklifi tushdi. Bu uning uchun ayni muddao edi. Tezda kelishuvga erishib, Dilrabo Xayrullayeva rahbarligidagi “Sardorbek-shahri-Kesh” oilaviy korxonasiga ishga kirdi.

Yoshim 25 da. Bolaligim Oqsaroy maydonida oʻtgan. Oʻsha paytlari bu binoning qanday barpo etilgani haqida koʻp oʻylardim. Oʻzimcha loyihasini chizishga intildirdim. Uni bobolarimiz nihoyatda mohirona arxitektura asosida qurgan. Bugun uning kichik shakldagi koʻrinishini yasayman, — deydi Muhammadjon Sattorov. — Ikkinchi guruh nogironi boʻlgan



# ATROF-MUHIT MUHOFAZASI:

## DAVLAT SIYOSATINING HUQUQIY KAFOLATI



“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida barpo etilayotgan “yashil belbogʻ” va bogʻlar yurtimiz miqyosida keng koʻlamli obodlik va yashillikka, odamlar uchun munosib sharoit yaratish va xalqimiz salomatligini asrab-avaylashga xizmat qilmoqda.

Davlat zimmasidagi yana bir ekologik majburiyat — Orolboʻyi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar koʻrish.

Bu borada Prezidentimiz ilgari surgan ekologik tashabbuslar doirasida keyingi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektarda oʻrmon barpo etilgani ham ushbu konstitutsiyaviy normaning samarali ijrosiga xizmat qilmoqda.

Toʻrtinchidan, yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish majburiyati fuqarolarning 6 ta burchidan biri sifatida belgilandi. Bu fuqarolarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotkorona munosabatda boʻlishi, ekologiya talablariga rioya etishi lozimligini anglatadi.

Beshinchidan, yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa

tabiiy resurslar umummilliy boylik ekan, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasida ekan ham mustahkamlandi.

Ushbu konstitutsiyaviy normaning ahamiyati shundaki, u, avvalo, tabiiy resurslarning umummilliy boylik sifatidagi maqomini belgilaydi. Yaʼni tabiiy resurslar keng maʼnoda oʻzbek xalqining boyligi, ulardan davlat va jamiyat taraqqiyoti yoʻlida foydalaniladi.

Oʻz navbatida, ushbu norma tabiiy resurslar davlat muhofazasida ekanini ham belgilaydi. Bu esa davlat va vakolati organlari zimmasiga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni koʻrish majburiyatini yuklaydi.

Masalan, uy-joy qurilishi sohasida yangi quriladigan, balandligi 12 metrdan yoki umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq binolarni loyihalashtirishda unga tutash hududlarning kamida 25 foizini koʻkalamzorlashtirish, shuningdek, atrof-muhitga zarari koʻp sanoat korxonalari uchun “yashil belbogʻ”lar barpo etish boʻyicha yangi ekologik talablar joriy etilgani ushbu konstitutsiyaviy norma ijrosiga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashi tashkil etilib, uning iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish boʻyicha milliy strategiyani ishlab chiqish hamda ushbu yoʻnalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish, iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish boʻyicha tashqi siyosatning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash kabi ustuvor vazifalari belgilandi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 24-sentabrdagi “Chang boʻronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori bilan Oʻzbekiston Respublikasida chang boʻronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish boʻyicha 2024-2030-yillarga moʻljallangan milliy dastur tasdiqlandi.

Iqlim oʻzgarishiga bogʻliq xavflarga moslashuvchanlikni oshirish boʻyicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqilishi global iqlim oʻzgarishi salbiy oqibatlarining oldini samarali olish imkonini beradi. Zero, unda avtomobilsozlikda “Yevro-4” standartidan past toifadagi yonilgʻini sotish va undan

foydalanishni bosqichma-bosqich toʻliq taqilash nazarda tutildi. Buning uchun Buxoro va Fargʻona nefti qayta ishlash zavodlari yuqori sifatl yonilgʻi ishlab chiqarish boʻyicha modernizatsiya qilinishi belgilandi.

Oltinchidan, Konstitutsiyada ilk marotaba davlat yoshlar huquqlari, jumladan, ekologik huquqlarning himoya qilinishini taʼminlash belgilandi. Bu ham bejiz emas. Chunki yoshlar — mamlakatimiz kelajagi, ularni ekologik madaniyatli qilib tarbiyalash, ekologik huquqlarini taʼminlash orqali yurtimizning kelajagini asrab-avaylashga hissa qoʻshamiz.

Yettinchidan, Bosh qonunimizda davlat organlarining ekologik vakolatlariga ham alohida eʼtibor qaratildi. Xususan, unda ilk marotaba Vazirlar Mahkamasining atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklar va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim oʻzgarishi, epidemiyalar, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohaslarida yagona davlat siyosatini yuritish, hokimlarning hududlarni, jumladan, ekologik jihatdan rivojlantirishni taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni koʻrish boʻyicha vakolatlari belgilandi.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar hukumat va mahalliy hokimliklarning atrof-muhitni muhofaza qilishni ularning eng asosiy vazifalari sifatida belgilaydi va shu orqali ularning zimmasiga ekologik qonunchilik talablariga rioya etilishini taʼminlash boʻyicha katta masʼuliyat va javobgarlik yuklaydi.

Umuman, yangi tahrirdagi Bosh qonunimiz davlatning ekologik siyosatini takomillashtirib, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni taʼminlash sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim dasturiy amal boʻldi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiyamiz Oʻzbekistonning barqaror taraqqiyotini taʼminlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy, jumladan, biologik resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan iqtisodiy va ekologik siyosatni roʻyobga chiqarish, oʻsimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishni samarali tartibga solish, jamoatchilik nazorati tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan zarur huquqiy asoslarni yaratish va kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

## NOGIRONLIGI BORLARNI ISHLI QILGAN TADBIRKOR 49,5 MILLION SUBSIDIYA OLDI

Qaror va ijro



bois, oʻzimga mos ish topish mushkul deb oʻylardim. Lekin hozir mehnatim orqali odamlarga nafim tegishi mumkinligini angladim. Ayniqsa, oʻzim yaxshi koʻrgan ish — haykalchalar, turli koʻrinishdagi shakllar yasash bilan shugʻullanayotganimdan mamnunman. Aslida, bu oson ish emas. Yasalayotgan har bir buyumga nozik did va eʼtibor bilan ishlav berish kerak. Boisi, mahsulotlarimiz asosan

Shahrisabzga kelgan xorijlik sayyohlarga sotiladi. Ular buni esdalik sifatida yurtiga olib ketadi. Shunday ekan, mamlakatimiz haqidagi tasavvurlarni yanada boyitish, ijobiy fikr uygʻotish bizning ham vazifamiz. Hozir Dilrabo Xayrullayeva rahbarligidagi korxonada ishlayapman. Uch million soʻmga yaqin maosh olaman. Asosiysi, ish joyiga ega boʻlganimdan xursandman.

Dilafroʻz Abdiyeva ham ikkinchi guruh nogironi. Joriy yil iyundan boshlab “Sardorbek-shahri-Kesh” korxonasiga ishga qabul qilingan. Kasanachilik asosida, uyda oʻtirgan holda mehnat qilib, oylik maosh oladi.

— Ancha yildan beri ishsiz edim, — deydi hunarmand. — Biror joyga ishga kirmoqchi boʻlsam, har safar nogironligim bois, qabul qilinmasdim. Endi bunday muammo yoʻq. Qulay tomoni uyda oʻtirib, daromad topishimga imkon yaratilgan. Hozir kashta tikish, toʻn qavish kabi ishlarni bajaryapman. Maoshimizni ham vaqtida oloyapmiz. Avval ishli boʻlishni sira xayolimga keltira olmasdim. Jamiyatda oʻz oʻnimg borligidan faxrlandim. Muhimi oilamga nafim tegib, vaqtim samarali oʻtyapti.

Koʻpchilik qatori bandligi taʼminlangan Dildora Hasanova ham bugun korxonadagi eng faol doʻppidoʻzlar qatorida eʼtirof etib kelinadi. Boisi, milliy uslubdagi doʻppilarni mahorat ila tikadi. Shu orqali yaxshigina mablagʻ topmoqda.

— Avval ham doʻppi tikardim. Ammo qanday qilib sotishni bilmasdim, — deydi u. — Bugun bunday muammo yoʻq. Imkoniyatim cheklangani sabab uyda oʻtirib, mehnat qilishim uchun yetarlicha sharoit yaratilgan. Doʻppi tikish kishidan ancha sabr talab etadi. Yana bir jihati shuki, nozik mehnat. Bu yumushni yaxshi koʻraman. Mashaqqatli mehnat bilan tayyor boʻlgan doʻppini odamlarning boshida koʻrib quvonaman. Oʻz ishimga muhabbatim yanada ortadi.

Ancha yildan beri oilaviy hunarmandlik bilan mashgʻul boʻlib kelgan Dilrabo Xayrullayeva 2021-yili rasman davlat roʻyxatidan oʻtdi. Shundan soʻng qator imtiyozlardan foydalanib, faoliyatini yanada kengaytirdi. Hozir 10 dan ortiq yoʻnalish boʻyicha yuzga yaqin ish oʻrni ochdi. Joriy yildan boshlab jismoniy imkoniyati cheklanganlarni ham kasanachilik orqali ishga jalb eta boshladi. Natijada davlatimiz rahbarining 2025-yil 8-maydagi “Nogironligi boʻlgan shaxslarning bandligini taʼminlash tizimini takomillashtirishga oid qoʻshimcha

chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoniga koʻra, 49,5 million soʻm subsidiya oldi.

— Shahrisabzda kulolchilik, zardoʻzlik, kashtachilik kabi qator hunarmandchilik turlari doim rivojlangan. Bu hunarlar bizga momolarimizdan meros. Bugun qadimiy qadriyatlarini davom ettirib tadbirkorlik qilaymiz. Asosiy ishimiz qoʻl mehnati bilan bogʻliq. Shu bois, koʻproq xotin-qizlarning uyda oʻtirib ishlashiga imkoniyat yaratganmiz. Bu ularning band boʻlishida qoʻl kelmoqda. Daromad olib, oila byudjetiga foyda keltiryapti. Ular roʻzgʻordan ajralmagan holda bemalol ishini davom ettirishi mumkin. Misol uchun, bitta toʻnni qavib, tayyorlash uchun kamida bir kun vaqt kerak. Buning uchun ishxonaga kelish shart emas. Faqat ish sifati va chiroyli bajarilsa boʻldi, — deydi Dilrabo Xayrullayeva. — Shahrimizga xorijdan mehmonlar doim keladi. Ular sayohati davomida, albatta, qoʻl mehnati bilan tayyorlangan nimadir xarid qilishga qiziqadi. Gohida baʼzi buyumlarimizni sotib oladi. Bundan tashqari, sayyohlarga tikuv jarayoni bilan tanishish imkoni ham yaratilgan. Koʻpchilik oʻzi kashta tikib koʻradi. Hunarimizga yuqori baho beradi.

Joriy yilda Miraki shaharchasida sayyohlik obyektlari ishga tushirildi. Endi u yerda ham korxonamiz tarmogʻini tashkil etib, yangi ish oʻrinlari ochish istagimiz bor. Bundan tashqari, gʻilam toʻqishni yoʻlga qoʻymochimiz.

Ayni paytda oyiga oʻrtacha yuz million soʻmga yaqin daromad topayotgan hunarmand ajratilgan subsidiya evaziga turistlar uchun yangi xizmat turini tashkil etish borasida ishlamoqda. Shu bilan birga, boshqa tumanlarda hunarmandchilikka qiziquvchi xotin-qizlar uchun oʻquv kurslarini ochib, kasb oʻrgatish, ishlilar sonini kamaytirishga katta hissa qoʻshish niyatida.

Akbar RAHMONOV,  
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri





## Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

# YOSHLAR SIYOSATI SOHASIDA IJRO INTIZOMI MADANIYATI – KENG QAMROVLI O'ZGARISHLAR ASOSI

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, qabul qilinayotgan qaror va topshiriqlar qog'ozda emas, amalda natija berishi kerak. Bu tamoyil ijro intizomini yanada kuchaytirdi.

**Natijalar qog'ozda emas, amalda!**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri sifatida natijadorlikni yangi — sifat bosqichiga olib chiqishga xizmat qilmoqda.**

Ushbu farmon davlat boshqaruvida tartib-intizomni kuchaytirish hamda harakat emas, natija uchun mas'uliyatni ustuvor mezonaga aylantirish kabi 2 ta muhim yondashuvni mustahkamladi. Zero, hujjatda belgilanganidek, amaldorlar faoliyatida bajarilgan ishlar soni emas, jamiyatning manfaatiga xizmat qiladigan samaradorlik, o'z vaqtda bajarilgan topshiriq, aniq natija ustuvor ahamiyatga ega.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosini nazorat qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish to'g'risida”gi qarori asosida “Ijro.gov.uz” tizimida Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosining nazoratini tashkil etishning yangi mexanizmi yaratildi.

Bu orqali ijro natijasi bo'yicha aniq hisobdorlikni ta'minlash, shuningdek, barcha bo'g'indagi rahbarlar va xodimlarning ijro intizomiga qat'iy rioya etish bo'yicha shaxsiy mas'uliyati va javobgarligi yanada oshirildi.

Yoshlar ishlari agentligi tizimida qat'iy intizom va shaxsiy javobgarlik instituti kuchaytirilib, mas'ullar faoliyatiga baho berishning yangi mezonlari joriy etildi. Rahbarlar uchun KPI tizimi tatbiq qilinishi, intizom buzilishiga nisbatan chora ko'rish mexanizmlari qayta ko'rib chiqilgani, ijro samaradorligini monitoring qilishning yagona tartibi belgilab berilgani o'tgan qisqa muddatda sezilarli natijalar ko'rsatdi. Bu tizim faqat nazorat vositasi emas, balki rahbarlar va mas'ul xodimlar faoliyatini baholash, rag'batlantirishning aniq mezonlari sifatida ishlatilmoqda.



**Alisher SA'DULLAYEV,**  
Yoshlar ishlari agentligi direktori

2025-yilning I-III choraklari davomida agentlik rahbarlarining KPI ko'rsatkichlari ham mos ravishda 97,1-97,2 foizdan 100 foizga chiqqani mas'uliyat va intizom masalasi yuqori darajada yo'lga qo'yilayotganini ko'rsatmoqda. Agentlik mas'ul xodimlarining shaxsiy ish rejasi va individual KPI ko'rsatkichlari bevosita rag'batlantirish yoki intizomiy javobgarlik choralari bilan uyg'unlashtirilgani tizimda mas'uliyatni yanada kuchaytirdi.

Agentlikda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holati har hafta juma kuni — direktorning birinchi o'rinbosari huzurida, har hafta dushanba kuni — direktor huzurida, har chorakda — hay'at majlislarida muhokama qilinmoqda. Bunda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni to'liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta'minlamagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi.

Misol uchun, mas'uliyatsizligi va majburiyatlariga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lgani tufayli joriy yil davomida 3 nafar xodim lavozimidan ozod etildi, 5 nafar xodimga “hayfsan” intizomiy chorasini qo'llandi, 2 nafar xodimga o'rtacha oylik ish haqining 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima tayinlandi, 13 nafariga qat'iy ogohlantirish berildi. Bu raqamlar intizom masalasi formal talab emas, shaxsiy javobgarlik asosida amalga oshirilayotganini anglatadi.

Ijro intizomini takomillashtirishda xodimlar malakasini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari alohida o'rin tutadi. Joriy yilda ijro nazoratiga mas'ul bo'lgan 7 nafar xodim Vazirlar Mahkamasida stajirovka o'tadi, 4 nafar xodim esa Hisob palatasi va Adliya vazirligida iqtisodiy o'qishlarda ishtirok etdi. Shuningdek, agentlikning markaziy apparati va vertikal tizimida 11 marotaba iqtisodiy o'quv o'tkazilib, hududlardagi 160 nafar mas'ul xodimning agentlik markaziy apparatida stajirovka o'tashi tashkil etildi.

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti topshiriqlar ijrosini sohaviy tarzda monitoring qilib, har chorakda hay'at va Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi majlislarida muhokama qilib borilmoqda.

“

**Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosini nazorat qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish to'g'risida”gi qarori asosida “Ijro.gov.uz” tizimida Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosining nazoratini tashkil etishning yangi mexanizmi yaratildi.**

2025-yil yanvar-noyabr oylarida agentlikda jami 1448 ta topshiriq nazoratga olingan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarida belgilangan 997 ta, Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 58 ta hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan 393 ta topshiriqning ijrosi to'liq ta'minlandi.

Tizim mas'ullari va quyi tashkilotlar endi faqat ma'lumot berish bilan cheklanmay, belgilangan maqsadlarga qay darajada erishganini isbotlashi shart. Bu amaliyot ijro tizimi orqali natija ko'rsatish madaniyatini shakllantirmoqda.

**Nazorat bor joyda tartib bo'ladi**

Bu yondashuv natijasida Yoshlar ishlari agentligining barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim olish, kasb-hunar egallash, iste'dodni ro'yobga chiqarish, bandlik masalalaridagi keng ko'lamli faoliyati amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Shubhasiz, bularning orasida bandlik, yoshlar jinoyatchiligidan oldini olish va davlatning



e'tiboriga muhtoj yoshlar bilan ishlash masalasi juda dolzarb.

Yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimi yaratilgani har bir mahallaga birlashtirilgan yoshlar yetakchilaridan aniqlik, natijadorlik



va tezkorlikni talab qilmoqda. Yoshlar muammolarini “yuqori bo'g'inga chiqmay turib” quyi tizimning o'zida hal etish ijro intizomining amaliy natijasidir. Bu jarayonda yoshlar yetakchilarining uyma-uy yurib, yoshlarning holatini o'rganishi, murojaatlarni qayd etishi

Mazkur qarorlar ijrosini o'z vaqtida samarali bajarish hamda ajratilgan mablag'ning haqiqiy egalari qaytib borishini qat'iy nazorat qilish natijasida 15 mingga yaqin tashabbuskor yigit-qizga qariyb 2 trillion so'mlik imtiyozli kredit ajratilib, 20 mingga yaqin yangi ish o'rni ochildi.

va ularni mas'ul idoralarga yo'naltirishi, eng muhimi, har bir murojaat bo'yicha natijaga erishishi kutilmoqda.

O'tgan davrda mahallalardagi yoshlar yetakchilari ko'magida 9,2 million yoshning balansi shakllantirildi. Ihsiz va biznes boshlash

Shuningdek, yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar doirasida xorijiy tillarni o'rganishni rag'batlantirish va ekologik tashabbuslarni moliyalashtirish bo'yicha tizim yaratishga qaratilgan muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-oktabrdagi “Yoshlarning o'quv markazlarida xorijiy tillarni o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratish hamda o'quv markazlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan yoshlarning ingliz, nemis, fransuz, yapon, koreys va xitoy kabi talab yuqori bo'lgan chet tillarni o'rganishi uchun 2 oylik xarajati o'quvchi tomonidan qoplanadigan, keyingi 6 oygacha bo'lgan to'lovlar davomatga qarab davlat tomonidan moliyalashtiriladigan “2+6” formatidagi dastur yo'lga qo'yildi. Mazkur dastur orqali 2030-yilga qadar 100 ming nafar yoshning xorijiy tillardan sertifikat olishini ta'minlovchi aniq maqsad belgilandi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-oktabrdagi tegishli qarori bilan Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi “Yashil tashabbuslar”ni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilib, atrof-muhitni asrash, ekologik madaniyatni oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ilim bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida tizim yaratildi.

Ushbu tizim orqali yoshlarning ta'lim, innovatsiya va ekologiya yo'nalishlaridagi tashabbuslarini amaliy qo'llab-quvvatlash, salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi belgilandi.

**Yoshlar bilan ishlash — mas'ullarning muhim vazifasi**

Prezidentimizning qat'iy talabi asosida yoshlar masalasi mahalliy idoralar uchun “qo'shimcha vazifa” emas, balki har bir mas'ulning kundalik faoliyatidagi bosh yo'nalish sifatida belgilandi.

Mazkur yondashuv natijasida har bir yoshga mas'ul rahbarlar birlashtirilib, ularning hayot tarzidan boshlab oilaviy muhitigacha, ta'limdan chetda qolishidan tortib, bandlikdagi uzilishlarga — ko'p qirali muammolarga individual yechim topish amaliyoti joriy etildi.

Ushbu amaliyot pirovardida, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat darajasining kamayishi, bandlik, ta'lim va psixologik ko'makning bir butun tizim sifatida ishlatishiga olib keldi. Ta'limdan chetda qolgan minglab yoshlar o'qishga qayta jalb qilindi.

**Tizimdagi yangilanishlar**

Yoshlar bilan ishlash tizimidagi hozirgi natijalar keyingi bosqich uchun asos bo'ladi deb o'ylaymiz. Muhimi, agentlik faoliyati bugun “murojaat kelgach, harakat qilish” modelidan chiqib, “oldini olish, barqaror yechim yaratish” modeli sari ilgarilayapti. Rejalar ham ayni tamoyil asosida shakllanmoqda.

Bu modelni hayotga to'laqonli tatbiq etish uchun, birinchi navbatda, Prezidentimizning joriy yil 19-noyabrda o'tkazilgan videosektor yig'ilishida bergan topshiriqlari asosida har bir rahbar KPI ko'rsatkichlariga yoshlar bandligini ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish masalalari kiritilib, kunlik nazorat tizimi yo'lga qo'yildi.

Ikkinchidan, yoshlar bilan ishlash bo'yicha yaratilgan mexanizmlar yanada takomillashtirildi. Chunki amaliyot muammo hal qilingach, nazorat bo'shshasa, yosh yana avvalgi muammolari girdobiga tushib qolishi mumkinligini ko'rsatdi.

Shu sabab har bir yosh uchun uzoq muddatli monitoring kartasi joriy etildi. Bu karta yoshning ta'limi, bandligi, ijtimoiy holati, oilaviy muhitidan tortib, psixologik ko'rsatkichlarigacha muntazam o'rganib boriladigan tizimni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona eko-tizim shakllantirildi. Bunda yoshlarning tashabbuslari, startap g'oyalari, biznes loyihalarini rag'batlantirib borish tizimi takomillashtirildi va ularning bilim va malakasini doimiy oshiruvchi o'quv markazlari qo'llab-quvvatlanadi. Bu orqali har bir yigit-qiz qobiliyatidan kelib chiqib, o'z hududida daromad topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oldimizga qo'yilgan mazkur vazifalarni har tomonlama sifati bajarish uchun agentlikning vertikal tizimida “natija jamoaniki — mas'uliyat shaxsiy” tamoyili asosida qat'iy tartib-intizomga asoslangan ijro mexanizmi yanada takomillashtirib boriladi.

ham ana shu tendensiyalarga mos ravishda amalga oshirildi: inson qadri eng oliy qadriyat sifatida belgilandi, ijtimoiy himoyaga oid normalar takomillashtirildi. Yoshlar, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha kafolatlar kengaytirildi, ta'lim va tibbiyot sohalariga oid me'yorlar mustahkamlandi. Bu o'zgarishlar mamlakatdagi huquqiy muhitni yanada ochiq, insonparvar va barqaror qiladigan omil sifatida qayd etilmoqda.

Qonun qanchalik mukammal yozilmasin, uning hayotga tatbiq etilishi inson ongiga bog'liq. Shu jihatdan Konstitutsiya jamiyatning ma'naviy yo'l xaritasi hamdir. U mas'uliyat, vijdon, halollik, birdamlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarini huquqiy darajada mustahkamlaydi. Imom Buxoriy kabi allomalarning insonning sha'ni, odobi va ichki go'zalligiga oid fikrlari ham aynan shu asosda davlatchilik madaniyati bilan uyg'unlik kasb etadi.

Konstitutsiya — faqat bugunni emas, mamlakatning kelajakdagi qiyofasini ham belgilaydigan asosiy hujjat. U iqtisodiy islohotlardan tortib, ta'lim va tibbiyot sifatiga, davlatning fuqaro bilan munosabatigacha bo'lgan muhim sohalarning strategik yo'nalishini belgilaydi.

Xalqimiz aytganidek: “Qonun ustun bo'lsa, el osoyishta yashaydi”. Adolat ustuvor joyda taraqqiyot tabiiy jarayonga aylanadi. Shu bois, Konstitutsiyani bilish, tushunish va unga tayanish — fuqarolik madaniyatining ajralmas qismi. Bu madaniy shakllangan jamiyatning har bir a'zosi “Men mansab kuchiga emas, qonun kuchiga ishonaman”, deya baralla aytga oladi.



## Munosabat

**Xalq orasida “Poydevor mustahkam bo'lsa, uy tik turadi, tomi ham butun bo'ladi” degan haqli gap bor. Davlatchilik nuqtayi nazaridan bu poydevor vazifasini Konstitutsiya bajaradi. Uning ahamiyati faqat huquqiy normalar to'plami bilan cheklanmaydi. Bosh qonun jamiyatning o'zi haqidagi tasavvurini, hokimiyat va fuqaro munosabatlariga yondashuvni, davlatning vazifasiga qay darajada sodiq ekanini belgilab beradi.**

So'nggi yillarda Konstitutsiyaga nisbatan jamiyatdagi umumiy munosabat jiddiy o'zgardi. Ilgarigi mafkuraviy inersiya — tanish-bilishlikka tayangan qarash ustuvor bo'lgan sharoitda huquq tushunchasi ko'p hollarda keyingi darajaga tushib qoldirdi. Bugun esa vaziyat aksincha: har bir muammo milliy qonunchilik va inson

huquqlari nuqtayi nazaridan baholalanmoqda. Bu o'zgarish tasodif emas. U davlat va jamiyat munosabatlaridagi prinsipial burilishdan darak beradi. Jamiyat borasida “huquq”, davlat borasida “mas'uliyat” tushunchalari markaziy o'rinda chiqdi.

Ana shu o'ziga xos huquqiy uyg'unish

# QONUN USTUN BO'LSA, EL OSOYISHTA YASHAYDI

jarayonida xalqimiz shu kunlarda muhim tarixiy sana — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining o'ttiz uch yilligini “Konstitutsiya — inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!” degan hayotiy shior ostida keng nishonlamogda. Bu tadbirlar ham Konstitutsiyaga yangicha munosabatning, uning jamiyat hayotidagi o'rni yanada mustahkamlanayotganining yorqin ifodasidir.

Global amaliyotga nazar solsak, konstitutsiyaviy islohodlarning aksariyati bir jihatga — inson qadri qonun darajasida mustahkamlashga qaratilmoqda. Oxirgi yigirma yilda 60 dan ortiq davlat Konstitutsiyasini yangilab, yuzlab mamlakatlar bosh qonunini qayta ko'rib chiqdi. Ularning umumiy xulosasi bitta: barqaror taraqqiyot moliyaviy resurslarga emas, inson huquqlari ta'minlanishiga bog'liq.

O'zbekistondagi islohotlar ham shu jarayonga uyg'un tarzda amalga oshirildi. Farqi shundaki, mamlakatdagi o'zgarishlar xalq ishtirokida, ochiq muhokamalar orqali ro'yobga



**Shovosil ZIYODOV,**  
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Imom Buxoriy xalqaro  
ilmiy-tadqiqot markazi direktori,  
tarix fanlari doktori, professor

chiqdi — bu esa ularga qo'shimcha ma'naviy legitimlik baxsh etdi.

Tarixga nazar solsak, adolat ustuvor bo'lgan davrlarda yurt tinch yashagan, iqtisodiyot yuksalib, ma'naviyat gullab-yashnagan. Somoniyarlardan to temuriylargacha bo'lgan davrda davlatchilikning asosiy mezonlari “odil hokim” tushunchasida edi. Navoiyning “Adolat — davlatning asosi” degan fikri yoki Temur tuzuklaridagi “Zulm davlatni zaiflashtiradi” degan hikmat bugun yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, ma'naviy me'yor sifatida voqeligi yo'qotmagan. Shu ma'noda, Konstitutsiyaning yangilanishi ham tarixdan kelayotgan adolat tamoyilining zamonaviy huquqiy davlat talabi bilan uyg'unlashuvi demakdir.

Bugun dunyoda inson huquqlarini kengaytirishdan, to raqamli xavfsizlik, ekologik kafolatlar, ijtimoiy adolat va xalq ishtirokiga asoslangan konstitutsiyaviy jarayonlarga bo'lgan keng doiradagi islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistondagi yangilanishlar



6

2025-yil 6-dekabr, 253-son

YANGI O‘ZBEKISTON

Inson qadri uchun

VATANDOSHLAR BILAN  
MUSTAHKAM ALOQA —  
MAMLAKATIMIZNING USTUVOR YO‘NALISHI

So‘nggi yillarda mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida turli mintaqalarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan mustahkam aloqa o‘rnatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekiston siyosatining asosiy tamoyili bo‘lgan inson qadri nafaqat mamlakatimiz aholisi, balki xorijda yashayotgan yurtdoshlarimiz uchun ham birdek taalluqli ekani amalda o‘z ifodasini topyapti.



Odiljon SATTOROV,  
“Vatandoshlar” jamoat fondi  
boshqaruvi raisi

Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan turli institutlar, loyihalar va konsepsiyalar bugun o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Jumladan, 2021-yilda ochilgan “Vatandoshlar” jamoat fondining faoliyati fikrimiz tasdig‘idir.

Fond tashkil etilgan ilk kunlardan boshlab xorijdagi yurtdoshlar bilan tizimli muloqot o‘rnatish, ularga ma‘naviy-ma‘rifiy ko‘maklashish va jipsligini mustahkamlashga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, 2023-yili davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Konstitutsiyamizga xorijdagi vatandoshlarga oid alohida norma kiritildi. Bosh qonunning 23-moddasida chet elda yashayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlandi. Ushbu normaning qabul qilinishi xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash jarayonini yangi bosqichga ko‘tardi. Fond va tegishli institutlar faoliyatining yanada samarali bo‘lishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

2025-yildan boshlab Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalarini bo‘yicha qo‘mitaning vatandoshlarga alohida e‘tibor qaratish boshlagani mazkur yo‘nalishdagi ishlarni endi davlat organi tomonidan tizimli va maqsadli ravishda bajarilayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

Bugun qator tadbir va loyihalar amalga oshirilib, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ona tilimiz jozibadorligini yanada oshirish borasida izchil ishlar qilinmoqda. Jumladan, fond tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan “Kitoblar karvoni” loyihasi doirasida xorijda o‘zbek tilida dars berib kelinayotgan maktablarga 2023-yilda 10 ming, 2024-yilda 15 ming, 2025-yilda esa 25 ming nusxadagi badiiy adabiyotlar yetkazib berildi.

2024-yilda xorijdagi nuroniyalar uchun yo‘lga qo‘yilgan “Chinor” loyihasida 40 ishtirokchi qatnashgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 150 nafardan oshdi. Boshlang‘ich

Yaratgan insonning rizqini har yerga sochib qo‘yadi. Vatandan olisda yashab, ishlab kelayotgan O‘zbekiston fuqarolarini dunyoning turli davlatida uchratish mumkin. O‘zim ham qariyb o‘n yildan bosh Hindistonda yashab kelaman. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining xorijiy mamlakatlar tarixi fakultetini urdu tili bo‘yicha tamomlab, magistraturani Hindistonda davom ettirdim. “O‘zbek va urdu tillari o‘rtasidagi mushtarak so‘zlar” mavzusidagi ilmiy ishim hayotimning bir bo‘lagiga aylandi.

bosqichlarda 50 ga yaqin vatandosh ishtirok etgan, yoshi kichik vatandoshlar uchun tashkil etilgan “Anor” loyihasi bugun 200 dan ziyod ishtirokchini qamrab oldi.

Yuz yillar o‘tgan bo‘lsa ham ona Vatani, qavmu qarindoshlari mehrini sog‘ingan yurtdoshlar uchun amalga oshirilayotgan “Ajdodlarimiz izidan” loyihasi o‘nlab vatandoshlarimizni yaqinlari bilan qayta uchrashtirib, Vatanimiz bilan aloqalarini tikladi.

Xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tilidan dars berib, milliy qadriyatlarimiz va ona tilimiz jozibasini saqlash yo‘lida tinmay mehnat qilayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida 70 dan ortiq vatandoshimiz ishtirok etib, 72 soatlik o‘quv jarayonidan bahramand bo‘ldi.

“Yosh vatandosh yozuvchisi” loyihasi esa turli davlatlarda yashayotgan ijodkor yoshlarni bir maydonda jamlab, ularning ijodiy ishlari orqali millatlara do‘stlik va ma‘naviy bog‘liqlikni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, fond tomonidan qator tanlovlar ham o‘tkazildi. Jumladan, “Sen turfa jilosan, aziz ona tilim”, “O‘zbekiston yosh rassomlar nigohida”, “O‘yla, orzu qil, o‘zbekcha yoz”, “Zukko kitobxon”, “Bir bayroq ostida” kabi tanlovlar tashkil etilib, ular orqali ona tilimiz ravnaqini ta‘minlash, yoshlarni ma‘rifatga oshno etish, davlat ramzlarini e‘zozlash kabi g‘oyalarni targ‘ib etildi. Poytaxtimizda o‘tkazilgan o‘zbek tili fan olimpiadasida Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi davlatlardan 36 vatandosh ishtirok etdi. Musobaqa g‘oliblari munosib taqdirlandi.

Bundan tashqari, tashkil etilayotgan mintaqaviy forumlar xorijdagi vatandoshlarni yanada jipslashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, joriy yil 5-aprelda Germaniyada o‘tkazilgan mintaqaviy forumda Yevropaning 20 ta mamlakatida yashovchi 286 ishtirokchi qatnashdi. Shuningdek, AQSH va Kanadadagi vatandoshlar uchun tashkil etilgan mintaqaviy forumda 100 dan ziyod vatandosh qamrab olindi.

MDHda istiqomat qilayotgan vatandoshlar uchun navbatdagi mintaqaviy forum ayni paytda O‘zbekistonda o‘tkazilmoqda. Arab davlatlarida yashovchi vatandoshlar uchun mo‘ljallangan forum esa 13-dekabr kuni Dubayda o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Bu forumlar global miqyosdagi birdamlik va jipslik yanada mustahkamlanayotganini anglatadi. Shuningdek, fond tomonidan Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni va Navro‘z kabi bayramlar ham xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar orasida keng nishonlab kelinmoqda.

Loyihalarning ko‘payishi, forumlar geografiasining kengayishi, ma‘naviyatga xizmat qilayotgan tashabbuslar hamda Konstitutsiyaning 23-moddasida vatandoshlar huquqlarining kafolatlanishi bir haqiqatni tasdiqlaydi: fond kelgusida ham oldiga qo‘yilgan vazifalarni yuqori saviyada ado etadi.



## VATAN BIZ UCHUN, biz vatan uchun qadrli

Sitora Usmonova,  
Germaniyadagi vatandosh

Qariyb o‘n yildan beri Germaniyaning Berlin shahrida istiqomat qilaymiz. Ona yurtimiz — O‘zbekiston o‘z fuqarolarini qayerda bo‘lmasin, himoya qilishini har doim chuqur his etib yashayman.



## Yurtimizdagidek XOTIRJAMMIZ

Oilamiz bilan Daniyaning Orxus shahrida 3 yildan beri istiqomat qilamiz. Ikki oy avval o‘g‘illi bo‘ldik. Ota-onamiz “Musofir yurtda qanday yasharkansizlar?” deb xavotirlangan edi, albatta. Lekin hammasi joyida, xuddi Vatanimizdagidek g‘amxo‘rlikni his etdik. Aslida, bugun dunyoning qaysi burchida bo‘lmang, o‘zbekistonliklarga avvalgidan butunlay yangicha munosabatga guvoh bo‘lasiz.

Zero, mamlakatimizni jahon taniyapti. Shu ma‘noda, bugun “O‘zbekistondanman”, degan so‘zni aytish bizga milliy g‘urur bag‘ishlayotgani, buni eshitgan chet elliklar yuziga tabassum yugurayotgani haqiqat. Har qadamda Vatanimiz e‘tiborida, ardog‘ida ekanini his qilib turish xotirjamlik asosidir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 23-moddasi xorijdagi vatandoshlarning mustahkam tayanchiga aylandi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi mamlakat hududida ham, uning

tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylilik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Ayni kafolatni hayotida, amalda ko‘rayotgan vatandoshlarimiz tinch, xotirjam, erkin ishlaydi. Butun diqqat-e‘tiborini oilasi, yaqinlariga qaratadi. Ilmiy sohalarida izlanayotganlar o‘z ustida ishlaydi, salohiyatini oshirishga harakat qiladi. Keyingi yillarda xorijda turli sohalarida ishlayotgan, o‘z kasbining tajribali mutaxassisi bo‘lgan vatandoshlar O‘zbekistonga qaytib, mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shyapti.

Konstitutsiyamizning 23-moddasida davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qilishi belgilab qo‘yilgan. Yangi tahrirdagi Bosh qonunimizga kiritilgan o‘zgarish va qo‘shimchalarda xorijdagi vatandoshlar manfaatlarini ham inobatga olingani biz uchun ayni muddao. Vatandoshlarni jipslashtirish orqali milliy o‘zlikni saqlab qolishga xizmat qilayotgan “Vatandoshlar” jamoat fondi esa juda ko‘plab xayrli ishlarni bajarayotir.

Mamlakatimizning boshqa davlatlardagi elchixonalari tomonidan ham vatandoshlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, qo‘llov haqida eshitamiz. Qadriyatlarimiz, milliy bayramlarimiz o‘zga yurtlarda ham ulug‘lanayotgani, ularda

Ayniqsa, ushbu tuyg‘u O‘zbekistonning Berlin shahridagi elchixonasiga kirgan ilk damlardan qozoniladi. Bu yerdagi samimiy munosabat, e‘tibor va hurmatdan inson o‘zini yurtining bag‘rida turgandek his qiladi.

Elchixonamiz atrofida vatandoshlarimizni birlashtiradigan uchrashuv va anjumanlar, bayram tadbirlari, katta dasturxon atrofidagi suhbatlar tez-tez tashkil etiladi. Bunday yig‘inlar bizga Vatan muhitini eslatish bilan birga O‘zbekiston fuqarosi sifatida qadrimiz yuksak ekanini ko‘rsatadi. Yurtimizdan kelgan delegatsiyalar, ilm ahli va mutaxassislar bilan uchrashuvlar yurt sog‘inichini bir oz bo‘lsa-da bosib, qalbimizdagi “Vatan bizni unutmagan” degan ishonchni mustahkamlaydi.

Chet eldagi hayotimizni yangillashtirishga qaratilgan konsullik xizmatlari alohida e‘tiborga loyiq. Pasport rasmiylashtirish, tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalar va boshqa muhim hujjatlar bilan bog‘liq ishlar elchixonamiz orqali ancha tez va qulay hal qilinmoqda. Bu chet elda yashayotgan yurtdoshlarimiz uchun juda katta yordam bo‘lyapti.

Yaqinda “Vatandoshlar” jamoat fondi ko‘magi bilan Germaniyada “O‘zbekgoyim” o‘zbek ayollar jamiyati tashkil etilganini quvonch bilan qabul qildik. Mazkur jamiyat ko‘plab o‘zbek ayollarining bir joyga jamlanishi va samimiy do‘stligiga sabab bo‘ldi. Barchamiz yangi do‘stlar, hamfikrlar ortirdik.

Uchrashuvlardan birida hamyurtimiz o‘z hikoyasini so‘zlab berdi. U Germaniyaga “Au pair” dasturi orqali kelib, hujjatlar bilan bog‘liq muammolarga to‘qnashadi. Uning

elchixonamiz yordami bilan himoyaga olingani, hujjatlar bilan bog‘liq muammosi bartaraf etilgani va dasturini muvaffaqiyatli davom ettirishga erishganidan xursand bo‘ldik. Yana bir karra chuqur his qildik: biz — O‘zbekiston fuqarolari qayerda bo‘lmaylik, Vatanning eng qadrlil kishilarimiz, tug‘ilgan yerimiz biz uchun ham eng bebaho.

Germaniyada bir vaqtning o‘zida ta‘lim olib, kasbiy faoliyatimni davom ettirmoqdaman. Moliya yo‘nalishida o‘qiyapman. Moliyaviy hisobotlar va audit bo‘yicha malaka oshirish kursini tamomladim. Ayni paytda Berlin Sanoat va savdo palatasi huzurida bo‘ljak imtihonga tayyorgarlik ko‘ryapman. Nasib qilsa, kasbiy faoliyatimni ham moliyaviy buxgalteriya sohasida davom ettirib, mehmonxona va ko‘chmas mulk buxgalteriyasiga oid loyihalar ustida ishlayman.

O‘zbekistonda qolgan ota-onamdan ko‘nglim to‘q, ular tinch, farovon yurtda. Shuning uchun ijod ham sig‘adi ko‘ngilga. Bolalar uchun ertak kitoblar nasr qildirib, “Amazon” onlayn savdo tarmog‘iga joylashtiryapman. “Ko‘prik va do‘stlik” deb ataluvchi ertak kitobim uch tilda, bilingval shaklda butun dunyo bo‘ylab o‘zbek tilidagi bolalar kitobi sifatida sotuvga qo‘yildi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgach, faoliyatimni yana rivojlantirish niyatidaman. Hozirgi tajribam va qiziqishlaringa mos yo‘nalishlarda faoliyat yuritib, bizni himoyasiga olgan O‘zbekistonimiz nomini nafaqat Germaniyada, balki butun dunyoda tanitishga hissa qo‘shish maqsadidagina.

o‘qituvchilari kamsitmaydi. Bu ham Vatanimizning dunyoga ochilib, mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini o‘rnatayotgani, har sohada hamkorlikni yo‘lga qo‘yayotgani samarasi deb bilamiz. Aslida ham shunday.

O‘zbekiston keyingi yillarda tashqi siyosatda Markaziy Osiyodagi eng faol, yetakchi davlatga aylandi. Eng rivojlangan davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash yo‘lida Prezidentimiz tinmay harakat qilayotgani, deyarli har kuni biror siyosiy tadbirda qatnashayotganini ko‘rib turamiz. Buning uchun insonga juda katta kuch, ulkan tajriba va salohiyat kerak. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda ayni paytda bo‘layotgan sohaviy yuksalishlardan faxrlanamiz.

Ota-onam bizni yo‘qlab, mehmonga kelganida, bu yerdagi hayotimizni ko‘rib ko‘ngli to‘ldi. Fuqarolariga olis mamlakatlarda ham g‘amxo‘rlik qilayotgan davlatimizga ko‘z tegmasligi, mustaqilligimiz abadiy bo‘lishini so‘rab duolar qildi. Shartnoma muddati tugagach, Vatanimizga qaytib, bor bilimimizni yoshlarga o‘rgatish, iqtisodiyotimiz rivojiga hissa qo‘shish niyatida ekanimizni eshitib, yanada quvonishdi.

Bu yil Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 33 yilligini keng nishonlaymiz. Butun O‘zbekiston xalqining yorug‘ kelajagi, haququqlari, va erkinliklarini ta‘minlashga xizmat qiladigan Bosh qonun qabul qilingan kun — eng qutlug‘ bayram. Shu kuni biz, dunyoning turli joyida yashayotgan vatandoshlar ham bu bayram shukuhini sezamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda “Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi”, degan qoidaning mustahkamlanishi biz, vatandoshlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini yanada kengaytirdi. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot o‘rnatish masalasi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham alohida maqsad sifatida belgilanganini bizni yanada quvontirdi.

Bunga javoban jonajon O‘zbekistonimiz nomini har jabhada ulug‘lash, ilm-fanda ham tengsiz ekanimizni namoyon etishda davom etamiz. Bizni kuch berib turgan Bosh qomusimiz dunyo turguncha tursin!